"Muruntov" haqidagi dastlabki taasurotim maktab partasidan boshlangan. Yettinchi sinfda geografiya fani o'qituvchimiz Hanifa muallimdan eshitganman. Ustoz har gal qiziqarli yangiliklar, ma'lumotlar topib kelar, biz esa har bir darsni intiqlik bilan kutardik. O'shanda bolalarcha qiziqish bilan xuddi ertaklar olamiga sayohat qilgandek tasavvurga ega bo'lardik. Bir gal "Muruntov" haqida ham gapirganlarida, hammamiz hayratga tushganmiz. Qizilqum kengliklari sir-sinoati, ma'danga boy kon haqidagi ilk tasavvurim o'shanda paydo bo'lgan. — "Muruntov" - O'zbekiston faxri, sandiq-sandiq tillo yetkazib beradi... — Yurtimizning katta boyligi shu kon qaridan joy olgan. Ustozning bu gaplari yillar osha hamon ongu shuurimda.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Muruntov" she'ri o'qib qoldim. Mana sizga kon va konchilar haqida chinakam e'tirof, ta'rif. Bu she'ri kon haqida yozilgan haqiqiy ijod asari deyish mumkin. Hozir ham xalq shoirining bu she'ri qayta-qayta o'qiyman, ilhom olaman. So'z zalvoridan hayratga tushaman.

Qadimiy Muruntovga Boqib bugun yayrayman, Turfa, yangi manzillar Zalvoriga qarayman. Hatto bir kon hududin O'Ichab yurish befoyda, Bunaqasi uchraydi Balki Mirrix yo Oyda.

Bu — shoir A.Oripovning faxr va g'urur tuyg'ulari nidosi. Bu kabi tashbehlarini ko'plab ijodkorlar mahsulida ko'rishimiz mumkin. O'tgan asrning o'rtalarida jamiki foydali narsalarimiz "xo'ja"si markaz, Moskov edi. Boshqa boyliklarimiz singari oltinimizning ham amaldagi egasi "og'alar" edi. Mustaqillikka erishganimizga qadar qancha oltin markazga tashib ketilganini mutaxassislar hisoblab chiqqandir, balki.

Qancha bosqinchi yov bor Bo'ri kabi o'ralab, Bu yurtning tillasidan Ko'z uzmagan mo'ralab.

Bir paytlar qush uchsa qanoti, odam yursa oyoqlari kuyadigan Qizilqum bag'rida "Muruntov" oltin koni topildi. Oltin zaxiralarning ko'pligi, rudani qazib

lab "Muruntov" oltin koni o'zining ikkinchi "umri"ni boshladi. Ahillik va oqillik bilan qiyinchiliklar bartaraf etila boshlandi. Mamlakatda oltin va uran qazib olish sanoatining rivojlanishida yangi tarixiy bosqich boshlandi. Bu davr moyinida NKMK tarkibida Uchquduqda oltin ajratib olish majmuasi, 3-GMZ va

ochiladi. Taraqqiyotning qo'shqanoti — bu fikr. Bugungi kunda kombinat rahbari, O'zbekiston Qahramoni Quvondiq Sanaqulov boshqarib kelayotgan ulug' karvon - kombinat ish faoliyatiga razm solgan odam bu hikmatning isbotini ko'radi.

ogohlantiruvchi ovoz, yuqoridan "portlatishga sanoqli daqiqalar qoldi" deya hayrat to'la nigohlar bilan kuzatib turganlarimiz, kengliklar bag'riga singib ketgan gumburlagan aks-sadolalar - bularning barchasi xotiramda muhrlanib qolgan.

ganimda, auditoriya suv quygandek jim qolganini, barcha berilib meni tinglayotganini his etdim. Bu jarayon meni yanada ruhlantirar, kon haqidagi tasavvurlarimni to'qinlanib gapirar edim. Dalil sifatida yozgan maqolalarni ham barchaga ko'rsatib, bundan g'ururlanar edim. Shunda ilmiy rahbarim Ibodulla aka Qo'ng'irov kon haqida o'z fikrlarini bildirib, "Keling "Muruntov" konining O'zbekiston imijini rivojlantirishdagi o'rini" mavzusida ilmiy ish qiling, men ham bu konga qiziqib qoldim. Barcha ma'lumotlarni mutaxassislar bilan maslahatlashib oling" deb o'z taklifini bildirdi...

Qizilqum JAVOHIRLAR SANDIG'I



Konda portlatish ishlari kon tarkibidagi "Portlovchi moddalar ishlab chiqariladigan portlovchi moddalar yordamida, portlatish ishlari olib borish uchastkasi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu uchastka tomonidan 2023-yilda "Muruntov" konida 51 million 61 ming kubometrdan ortiq portlatish ishlari amalga oshirilgan bo'lib, 2024-yilda portlatish ishlari hajmini 80 million kubometrqa yetkazish mo'ljallangan.

Kokpatas hamda Dovg'istovda oltin konlarining qurilishi nihoyasiga yetkazildi.

Har bir insonda yetarlicha jasorat topiladi. Biroq millat, yurt qayg'usi uchun kurashda bu jasorat o'n chandon yuqori bo'ladi. Xalq, jamiyat oldidagi ulkan mas'uliyat tuyg'usi Birinchi Prezidentimizga beqiyos kuch, shijoat bergan bo'lsa ne ajabi!?

Xayolmdan ketmas hech O'zbekning bir Botiri. Botir dedi:-Konlarim Xalqimning mulki erur. Fotih dedi:-Bu gaping Xomxayol, kulki dedi. -Muruntovning fath etdim Men o'z yarog'im bilan. Botir dedi:-Men uni Qazgum tirmog'im bilan. Men uchun yaroq asli Mehnatu sabot, dedi. Ming yillik shaharlarim Gapinga isbot dedi.

Mendan uyg'onish nimadan boshlanadi deb so'rasalar, hech ikkilanmasdan fikrlashdan boshlanadi, deyman. Fikr uyg'onsa hamma narsaga yo'l



HAYRAT

Mehnat faoliyatimni boshlabmanki, "Muruntov" koniga ko'p marta borishga to'g'ri kelgan. Har gal kon, undagi qudratli texnikalar, konchilar ishi, yer qaridan sado berayotgan portlashlardan hayratga tushaman.

Endi ishga kirgan kezarimda "Muruntov" koniga ilk safarimda kuzatgan jarayonlarim: portlatishdan oldingi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining magistratura yo'nalishida bo'lajak jurnalistlar bilan birga tahsil olganman. Kurdsoshlarim turli sohalarda ishlaydi. Bir gal oliygohimizda, katta auditoriyada talabalar o'zi ishlayotgan korxonaga yoki tashkilot faoliyati haqida so'zlab berish talabari tashkil etildi. Men "Muruntov" misolida kombinat haqida so'z boshla-

Yaratgan egam qaysi bir xalqlarga sahrolarni, boshqa biriga esa aksincha, suvloq hududlarni manzil-makon qilib bergan. Ne baxtki, to'rt faslning barchasi quyoshli bo'lgan, tuprog'ining har bir qarichi oltiniga teng, bir chindim urug' sochsa, bir quchoq gul qilib, ko'kartiib beradigan saxovatli zamin — beqiyos, betakror Vatanga egamiz.
"Muruntov" kun sayin rivojlanayotgan sanoatimizning zalvorli yukini ko'tarib kelayotgan mashhur kon sifatida tan olingani barchamizga ma'lum.
Bir gal ta'til vaqtida poytaxtga, undan keyin Surxon vohasiga oilaviy sayohat qilganmiz. Toshkentdan yo'lga chiqqan avtobus salonidagi yo'lovchilar suhbatga kirishib ketdi. Boshiga harir ro'mol o'ragan, yonimda o'tirgan opa menga yuzlanib, gap qotdi:
— Surxonlikka o'xshamayisiz.
— Ha, Zarafshonlikman.
— Muruntovdanmi? (Qarang, Navoiy yoki Zarafshon shahri demay, Muruntov dedi.)
— Ha.
Oddiy qishloq o'qituvchisi bo'lgan opa bizning kon haqida shunday berilib gapirib ketdiki, uning shuncha ma'lumotga, hattoki, men bilmagan ko'p ma'lumotlarga ega ekanligi hayratga soldi.
Tilimga kelganini bo'g'zimdand qaytarmadim. — Konimiz haqida gap ketganida, butun boshli yirik kombinat to'g'risidagi tushunchaga ega bo'lishingiz tabiiy, deya g'ururlanib ketdim. Shu onda cho'lim ko'zimga cho'g'dek ko'rinib ketdi, "Muruntov" koni, bepoyon hududning garmselli yo'zi, qum barxanlarini to'z'g'itadigan ayozli shamollari, u yerlarni o'zlariga manzil-makon tutgan oddiy mehnatkash eldoshlarim ko'z oldimdan birma-bir o'tdi.
"Asr mo'jizasi" deya ta'rif berilgan bu konning qahramonlari — insonlar, ularning qadoq qo'llari, mehnat, hayot iz solgan chehralari doimo "Muruntov" koni bilan hamohang tarzda eslanadi.
Dildora KARIMOVA.

Davomi keyingi sonda.

■ Jurnalist mulohazasi

IQTISODIYOTIMIZ TASHQI MUHITGA QANCHALIK MOSLASHUVCHAN?

OXIRI. Boshlanishi 1-betda

Maksimal kiyimlar, shuningdek, xavfsizlik uchun zarur vositalarni qabul qilib olib maxsus ko'tarma moslamasi orqali kon muhandisi Ozod Mamatov hamrohligida shaxtaga tushdik. Yer qariga tushish biroz hadikli, qo'rquvga soladigan, zimziyo qorong'ulik. Qorong'ulikka ko'zlar tezda moslashadi. Yo'l-yo'lakay Ozod Mamatovga bir qancha savollar bilan yuzlanaman.
— Aytishlaricha, konchilik kasbi dunyodagi eng xavfli o'nta kasbning biri sifatida tilga olinar ekan.
— To'g'ri, — qat'iy ohangda javob berdi kon muhandisi. — Yer ostida ishlash, to'yo'lakchalar va havo tanqisligi sharoitida mineral toshlarni maydalash — bu har kim ham uddalay oladigan mashg'ulot emas. Shuning uchun ko'pchilik bu kasbni tanlashda cho'chiydi.
— Bilasizmi, — deya gapini davom ettirdi hamrohim, — makonning o'zgarishi zamonning o'zgarishiga olib keladi. Yer ostida ishlash odami bosiq va vazmin qilib qo'yadi. Bu yerda inson idroki tezlashadi. Tepadagi har bir narsaning, hatto siz uchun ahmiyatsiz bo'lgan cho'pning ham qadri yer qarida o'n chandon ortadi. Chunki, shaxtada vaqt tushunchasi o'zgaradi. Bu yerda o'tayotgan har bir soniya insonni hayot haqida idrok qilishga undaydi.
Oraga insonni mushohadaga chorlovchi sukunat cho'kdi. Ozod Mamatov ham, biz o'tirgan texnikani boshqarayotgan haydovchi ham, yer sathidan qariyb 500 metr pastlikda soatiga 20 kilometr tezlikda harakatlanayotgan texnikada ketib borayotgan kamina ham o'z fikr-xayolimiz og'ushida edik.
Notekis yo'ldan siltanib, bir maromda harakatimni davom ettirayapmiz. Kutilmaganda ro'paramizda ma'dan ortilgan transport vositasi paydo bo'ladi. Meni vahima o'z domiga torta boshladi. Axir, qariyb 500 metr yer ostida bitta

texnika sig'adigan tuynikda ikkita texnikaning ro'parama-ro'para turishi...
— Vahimaga erk bermang, — deb meni yupatgan bo'ldi hamrohim. Yer osti qiya lahimida transport vositasi bir tomonlama harakatlanadi. Ma'lum bir uzunlikda qo'shimcha lahimlar mavjud. Bu qarama-qarshi tomondan kelayotgan transport vositasiga yo'l berish uchun maxsus tayyorlangan. Hozir, biz o'sha lahimga kirib, ro'paramizdagi yuk transportiga yo'l beramiz. Chunki, ulkan mashinalar tog' jinslarini ortgan holda yer qaridan sekinlik bilan tepaga chiqishi oson emas. Ularning har biri 20 tonnadan 30 tonnagacha tog' jinslarini yuqoriga olib chiqmoqda.
Biz o'tirgan texnika haydovchisi uni orqaga harakatlantirib, yo'lining chap tomonidagi transport vositalari bir-biriga yo'l berishlari uchun hozirlab qo'yilgan maxsus joyga kirdi va yer osti transport vositasi o'tib ketgach, yana yo'limizda davom etdik.
Nihoyat, shaxta yo'lini davom ettirish uchun maxsus perforator bilan yer ostidagi qattiq jismlarni burg'ilayotgan va portlatish ishlariga tayyorgarlik ko'rayotgan konchilar oldiga yetib keldik. Uchto'rt kishi o'z yumushi bilan band. Tosheshlar texnikadan chiqayotgan shovqin o'zi shundoq ham vahimani bo'lgan shaxta sirililgini yanada oshiradi.
— Geologlar va marksheyderlar tomonidan aniqlab berilgan ma'lumotlar asosida, vertikal hamda gorizontal holatlardagi lahimlar o'tiladi — deydi ST-2G markali o'ziyurar texnika operatori Nomoz Bekmurodov. — Har oltmish metr chuqurlikda shaxtaning bir-biriga paralel qavat(gorizont)lari joylashadi va dengiz sathidan balandlik metri bilan nomlanadi va o'sha qavatda tegishli loyiha asosida qazish ishlari amalga oshiriladi. Shaxtada uch smenada uzluksiz ish jarayoni olib boriladi.
Yer qariri sirilik ramzi. Uni tadqiq etishning oxiri, anglashning nihoyasi yo'qdek. Yer qarini tushunish


va anglash uchun yillar kamilik qiladi, uni har kim o'zicha talqin qiladi.
— Olayotgan maoshingiz ro'z'oringizga yetadimi?
— Xudoga shukur! Ro'z'oringim obod, egnimiz but, qozonimiz qaynab turibdi, — dedi Nomoz Bekmurodov. — Mashaqqatli mehnatimizga yarasha maoshlarimizni o'z vaqtida olib kelyapmiz. Har yili salomatligimni mustahkamlash uchun imtiyozli yo'llanmasi bilan sihatgohlarda dam olib kelaman. Ehtiyojdan kelib chiqib, moddiy yordam ham berib turishadi. Kasbim ortidan uy qurdim. Farzandlarimni oliy ma'lumotli va uyli-joyli qildim. Oddiy o'zbek oilasi butligiga shularning o'zi yetarli bo'lsa kerak.
Portlatish ishlari yakuniga yetgach, ma'danlar maxsus transport vositalari va yer osti mini vagonlarda yer ustiga olib chiqiladi. U yerdan 4 — gidrometallurgiya zavodiga tashiladi. — 2009-yili "G'ujumsoy" konida sanoat usulida oltin qazib olish ishlari boshlanishi 4-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirilishiga turki bo'lgan. Bungacha Qo'shrabot hududida faqat "Zarmitan" konida oltin qazib olingan, — dedi Ozod Mamatov.
— Demak, 4 — gidrometallurgiya zavodining barpo etilishi "G'ujumsoy" koni bilan bog'liq ekanda?
— Shunday, chunki kon ma'danlarini qazib olish hajmi anchaga oshgandi.
— Ayni paytda, kon ikkita tik stvol, ya'ni 1 va 6 — yordamchi stvollar hamda bir dona qiya stvol bilan ochilgan, deya suhbatni davom ettiradi kon muhandisi. Qiya va 6-yordamchi stvollar asosan tog' jinslarini yuqoriga — yer yuzasiga chiqarishga, 1-stvol esa ishchilarning shaxtaga tushib-chiqishi, asbob-uskunalar, materiallarni tushirib chiqarishga xizmat qiladi. Toza havo oqimi shaxtaga 6-yordamchi stvol orqali yuboriladi va ishlatilgan havo 1-stvol hamda qiya stvollar orqali yer yuziga chiqarib yuboriladi. Bilasizmi, har

qanday shaxtada havo so'rg'ich va purkagichlar bo'ladi. Shu jumladan bizda ham. Konimizda kon lahimlarini qazib o'tish ishlari 2009 yilning noyabrida boshlangandi. O'sha yil oxirigacha 110 metrga yetkazilgan bo'lsa, bugungi kunga qadar 29 ming 185 metrga yetkazildi. Yer osti kon lahimlarini qazib o'tish ishlari oltin ma'danni qazish ishlari bilan paralel ravishda olib borilmoqda. Joriy yilda oltin ma'danni qazish hajmini 850 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilmoqda.
Aslida bekorchi odam to'kis baxtni his qila olmaydi, uning yuzida hamisha norozilik va hafsalasizlik alomatlarini ko'rasiz. Bugun "G'ujumsoy" konida 360 metrlik yer qarida 6 soatu 36 daqiqa tinim bilmasdan mehnat qilayotgan qahramonlarimiz yuzida norozilik va hafsalasizlik alomatlarini ko'rmadim. Chunki, konda har bir kunning o'z masalalari bo'ladi, shaxtyor ularni birin-ketin yechib, oldi qadam tashlayveradi. Shaxtyorlar ishining jozibasi ham ana shunda.
— Bugun yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar shiddat bilan amalga oshirilmoqda. Bundan hech bir korxonaga va shaxs chetda qolayotgani yo'q.
— Albatta, bu jarayondan biz ham chetda qolganimiz yo'q. Chunki, jamiyatning bir bo'g'inimiz. Yaxshisi faktlarga tayanaylik. 2011 yili konda 295 nafar ishchi-xizmatchi mehnat qilgan bo'lsa, hozir 1164 nafar ishchi-xodimlar mehnat qilishmoqda. O'sha yili 46,2 ming tonna ruda qazib olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 861 ming tonnadan oshdi yoki 18,6 marta ko'paydi. 2018-yili konda yurtimizda diametri 6 metr, chuqurligi 500 metrni tashkil qiluvchi, yiliga 200 ming tonna ruda qazib olish imkonini beradigan "Yordamchi 6-G" shaxta stvoli foydalanishga topshirildi. O'sha yili mashina va mexanizmlarni siqilgan havo bilan ta'minlovchi yangi kompressor binosi foydalanishga topshirildi. Bino Xitoyda ishlab chiqarilgan energiyatejamkor va

unumdorligi yuqori bo'lgan kompressor uskunalarini bilan jihozlanirildi. Ayni paytda konda "540 metr sath zaxiralarni ochish va qazib olish" hamda "O'rtaliq koni +660 metr sath zaxiralarni ochish va qazib olish" investitsion loyihalari bo'yicha ishlar jadal tarzda olib borilmoqda.
Konda mahalliyashtirish jarayoni zamon talabi darajasida olib borilmoqda. Navoiy mashinasozlik zavodi va Janubiy kon boshqarmasi mexanika — ta'mirlash sexining qo'li gul ishchi-xodimlari tomonidan import o'rini bosuvchi, ham sifatli, ham arzon mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.
Yer ostida tezlik — sekin, lekin tanafussiz deganidek, safarimiz ham poyoniga yetib, uyga qaytish vaqti bo'ladi. Kon muhandisi Ozod Mamatov bilan "G'ujumsoy" konining notekis yo'ldan siltanib, bir maromda harakatimni davom ettirayapmiz. Nihoyat ro'paramizda yorug'lik ko'rindi. Bu siz o'ylayotgan chiroq emas, yorug' olamni quchog'iga olgan nur edi. Biz yer yuziga chiqdik.
XOTIMA O'RNIDA
Maqolamizni Yevrosiyo taraqqiyot banki tahlilchilarining: "O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy ustunligi uning doimiy o'zgarib turadigan tashqi muhitga tez moslasha olishidadir", degan xulosasi bilan boshlagandik. Hatto, O'zbekiston iqtisodiyoti tashqi muhitga qanchalik moslashuvchan, degan savolni ham o'rtaga tashlagandik. Mazkur maqolada savolga javob topdik, degan umiddamiz.
Bitta narsani ochiq ayta olaman: odam nimadan hayratlansa, o'shani ko'ngliga yaqin oladi. Ko'ngliga yaqin narsasi haqida orzu qiladi. Shuning uchun orzu qilishga barcha birdek haqli. Hatto, yer qarida tongni qarshi olmayotgan konchilar ham.
Mansur HUSANOV.

■ Qadriyat

Bugungi tahlilali zamonda xalqimizga xos mehr-oqibat, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda yosh avlodni milliy an'ana va urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardir.



QO'L YUVISH ODOBI

Bir qarashda unutilayotgan - marosimlarda qo'l yuvish ham yaxshi odatlarimizdan. Mehmonlarga suv quyuvchi chap bilagida sochiq bilan, o'ng qo'lida obdastani ushlab, chap qo'lida chilopchin tutadi. Biroz engashib muloyimlik bilan bo'lib-bo'lib uch marta suv quyadi. Sochiqqa bir vaqtda ikki kishi qo'l artmaydi. Keksalarni tik oyoqda urintirmaslik uchun ular joylashganlaridan keyin qo'llariga suv beriladi.

"Taomlanish odobi" kitobida yozilganidek, taom yeyish oldidan ikki qo'l bo'g'imigacha uch marta yuvish amali poklikdan bo'lib, kambag'allik va muhojirlikni ketkazadi, taomdan so'ng qo'llarni yuvish junundan saqlaydi, kichik gunohlarni ketkazadi va ko'zning sihatligiga sabab bo'ladi. Faqat taom yeyilgan bir qo'l yoki barmoqlarni uchin yuvib qo'yish joiz emas. Chunki sunnat ado bo'lmaydi.

Mehmon mezbom haqiga duo qilib, qo'l yuvishni, mezbom esa qo'l yuvdirishni unutmasin. Oxirida qo'l yuvish uchun toza idish va toza sochiq keltirsin. Qo'ldagi yog'lar oyoq osti bo'lmasligi uchun to'g'ri kelgan joyda emas, balki imkon qadar hamma bir idishda yuvsin. Jam bo'lgan suv chetroqqa va toza joyga to'kiladi.

Qo'l yuvish odobi shunday ibodatki, taomdan avval yoshlardan, taomdan keyin esa keksalardan boshlab yuvdirsin. Oyoq va pochalariga suv sachramasligi uchun tik turib yuvmasin. Qo'l yuvuvchi suv quyayotgan kimsa haqiga duo qilsin, suv quyuvchi ham unga hurmat bildirsin.

Qarang, ajdodlarimiz naqadar zukko va ta'bi nozik kishilar bo'lishgan. 60-yil-

larda nashr qilingan "Dunyo xalqlari taomlari" kitobining o'zbek taomlari qismida mehmonga chilopchin tutib obdastada qo'lga suv berish milliy odob deb yozilgan. Biror xonadonda ehtiyoj sezib qo'l yuvishni so'rasangiz, oddiygina qilib "vannaga kiravering" deb yo'l ko'rsatishadi. Axir "vannaxona"ga, istihola nuqtai-nazaridan qarasa, begonalarni kirmagan maqbul. Ba'zida oshxonaga kirishni aytishadi. U yerda esa xonadon bekalari ish bilan band bo'lishadi. Zaru-

ratdan kirib qo'l yuvasiz, lekin ikki tomonga ham anchagina noqulaylik bo'ladi. Ular ham, biz ham xijolat tortmaslik yoki o'zimizni oqlash uchun "endi shaharchilik, iloji yo'q..." deymiz.

Iloji bor, bo'lgandayam juda chiroyli iloji bor. Agar o'sha xonadonda chilopchin va obdasta bo'lsa-chi? Yoshlardan biri qo'lga suv quyib tursa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Bu ham bir tarbiya vositasi. Vaholanki, xalqimizda to'y-ma'raka va rasm-rusumlar ko'pchilik bilan o'tkaziladi. Odam bilmaganini ko'pchilikdan o'rganadi, chunki o'sha ko'pchilikni boshqaruvchi kattalar - keksa avlod bor, yozilmaydigan udum va qoidalar bor.

Afsuski, davra suhbatlarimizda ba'zi yoshlarning chilopchin, obdasta nimeligini bilmasliklariga ham guvoh bo'lyapmiz. Yoshlarga bu qadriyatlarini o'zini tanigan, biz kattalar o'rgatmasak, kim o'rgatadi?

Mayli, ko'ngilga taskin uchun bu holatni "biroz e'tiborsizlik" deb, yaxshi niyat qilyalik.

Sen borsan, hayotsan ko'zi cho'g'ida,

Suyanchiq bo'l' aso tutgan cho'g'ida,

Otang nomin ulug'la, noming et ehson,

Padar buzruvoringni e'zozla o'g'lon.

Otang panohida o'sib top kamol,

Qo'lga suv quyib duosini ol.

G'ofurjon YULDASHEV,
faxriy pensioner.

■ Культура

Мама, я в Дубаи!

С целью создания благоприятной психологической атмосферы - атмосферы радости, комфорта, дружбы, пропаганды здорового образа жизни, укрепления разносторонних творческих, культурных и дружественных связей между детьми из разных стран, повышения профессионального мастерства руководителей творческих коллективов, поддержки талантливой молодежи в реализации их творческого потенциала с 10 по 14 апреля в Дубае проходит II Международный конкурс-фестиваль «Dubai Grand Festival».

В конкурсе приняли участие около 30 стран мира, среди которых ОАЭ, Россия, Белоруссия, Грузия, Узбекистан, Казахстан, Киргизия, Монголия и др. Воспитанницы оркестра «Сказ» (худ. руководитель Ш.Маматов) и эстрадного хора «Дружба» (худ. руководитель Т.Пушкина) Дворца культуры «Фархад» сестры Амина и Аиша Шавкатовы стали участницами данного конкурса-фестиваля.

В номинации «Инструментальное искусство» саксофонистка Амина Шавкатова (руководитель Л.Нигматулина, концертмейстер Е.Умерова) получила первое место. В номинации «Вокальное искусство» Аиша Шавкатова



заняла почетное второе место. Обе девочки занимаются в музыкальной школе в г.Навои. Мама Амины и Аишы Лейла Нигматулина, руководитель в ДШМИ и воспитанница оркестра «Сказ», в котором занимается уже 25 лет. Л.Нигматулина всегда поддерживает своих дочерей, прилагая все силы и возможности для реали-



зации их музыкальных способностей. Желаем талантливым девочкам всегда пребывать в чудесном настроении и никогда не терять искорки вдохновения. Пусть их творческий путь объединяет в себе и самореализацию, и красоту, и успех!

Ситора ЯТИМОВА.

■ "101" xabar qiladi

O'LOV — TILSIZ YOV

Yong'in — odamlarning hayoti va sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo'lmaydigan yonishdir. Ko'rinib turibdiki, oddiy uchundan paydo bo'lgan yong'in qanchalar ziyon va zahmat keltirib chiqarishi mumkin.

Har bir yong'inning kelib chiqishiga insonlar sababchi bo'lishi mumkin. Ta'qiqlangan joyda tamaki chekish, texnologik jarayonda ishlatilayotgan quzilmada o'z vaqtida belgilangan texnik qarovni o'tkazmasdan uzliksiz ishlalish va boshqa yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish hollari ko'ngilsiz hodisa kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ladi. Yong'inlarda fuqarolarning tan jarohati olishi, halok bo'lishi, o'z qo'llari, peshona terlari bilan to'plagan boyliklari bir zumda ko'kka sovrulishi juda achinarlidir.

Yong'in sodir bo'lgandan to uni bartaraf qilguncha o'zining fizik-kimyoviy qonunlarini mujassamlashtirgan holda yonib, to'siqsiz yo'nala boshlaydi. Yong'inni tez va qisqa muddatlarda bartaraf qilish yong'in xavfsizligi bo'linmalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani bajarish, avvalom bor, yong'inni birinchi bo'lib aniqlagan fuqaroning yong'in xavfsizligi xizmatiga

belgilangan tartibda zudlik bilan xabar berishi, korxonada o'rnatilgan yong'inni aniqlovchi quzilmalarining doimiy sozligi, yong'in o'chirish moslamalarining butligi, yong'in xavfsizligi bo'linmalarining tezkorlikda yong'in sodir bo'lgan joyga yetib borishi, yong'inni aniqlash va bartaraf qilish bo'yicha taktik javgover harakatlarni zudlik bilan amalga oshirishga bog'liq. Yong'in sodir bo'lganda, fuqarolarning to'g'ri va aniq harakatlarni amalga oshirishlari ham juda muhimdir.

Zimmamizdagi mas'uliyatni chuqur anglagan holda yong'in xavfsizligi bo'linmalari shaxsiy tarkibining kasbiy mahoratini oshirish, taktik-tezkorlik, doimiy javgover shayligini ta'minlash, har qanday vaziyatda yong'inni o'chirish bo'yicha xodimlarni ruhiy tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Belgilangan dastur asosida xodimlar o'rtasida mashg'ulotlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Yong'in o'chirish avtomobillari va texnik vositalariga qo'shimcha texnik qarovlar o'tkazilab, ularning doimiy texnik sozligi ta'minlanmoqda.

Uchqun HOMIDOV,
"NKMK" AJ JKB "Zarmitan" koni favqulodda vaziyatlar xizmati 1-toifali muhandisi.

Otabek BOYNAZAROV,
Elyor SAMATOV,
inspektorlar.

■ Shifokor minbari

TIBBIY XIZMATNI YANADA YAXSHILAYMIZ

Tibbiyot xodimi oliyjanob kasb bo'lib, doimiy fidoyilik, aniq fikr va ulkan qalbni talab qiladi. "Zafarobod"TSQning 32 nafar shifokor, 118 nafar hamshira, 58 nafar ishchi xodimlardan iborat jamoasi hudud aholisi salomatligini muhofaza qilib kelmoqda.



Uzoq yillik halol mehnatlari uchun 6 nafar shifokorlarimiz "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni, 9 nafar tibbiyot xodimi "NKMK faxriysi" unvoni, 9 nafar xodimlarimiz ikkinchi, uchinchi darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlar "Zafarobod"TSQda hozirgi kunda 150 tagacha tashrifga mo'ljallangan poliklinika, 61 o'rinni stasionar, sanitariya-epidemiologiya bo'limi, "Zafarobod" kon boshqarmasi bo'linmalaridagi 10 ta feldsherlik sog'liqni saqlash tibbiy punkti, oshxonada, tez tibbiy yordam bo'limi, kir yuvish xonasi, dorixona, bevosita kasalxonada ichki kasalliklar, yuqumli kasalliklar, jarrohlik, akusher va ginekologiya, bolalar somatik, fizioterapiya bo'limlari, EKG, rentgen-diagnostika kabinetlari, klinik-diagnostika laboratoriyasi faoliyat ko'rsatayapti. 2024 yil 1 yanvar holatida tibbiy yordam ko'rsatiladiganlar soni 7411 kishini tashkil etmoqda.

Mamlakatimiz tibbiyotida olib borilayotgan islohotlar natijasida juda ko'plab yutuqlarga erishilyapti. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, keksalar va pensionerlarning sog'lom va munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, yaxshi tibbiy yordam odamlarning turmush darajasini oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Mustaqillik yillarida TSQ uchun yetarli miqdorda tibbiy asbob-uskunalar xarid qilinganligi bemorlarni qisqa vaqtda tekshirish imkonini berayapti. 2006 yilda klinik laboratoriya uchun "HUMAN"(Germaniya) kompaniyasining eng zamonaviy laboratoriya va diagnostika uskunalarini xarid qilindi. Ayni paytda laboratoriya sinovlari xalqaro standartlarga muvofiq bajarilyapti. O'sha yili speleokamera ochilib, uning uchun Surxondaryo viloyatidan tuz yetkazib berila boshlandi. Speleokamera palatasi nafas yo'llari kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni, shuningdek, yurak-qon

tomir kasalliklarining boshlang'ich bosqichlarida davolashda yaxshi natija beradi.

2010-yilda "Fabius" narkoz qurilmasi, "Draiger" laringoskopi olindi. 2018-yilda ko'chma EKG mashinasi o'rnatildi. Endilikda bemorlarning uyda elektrokardiogramma olish imkonini tug'ilyapti.

Yangi qurilmalar - o'pkani sun'iy shamollatish uchun "Origari" kompaniyasi anesteziya va nafas olish apparati, defibrilator, bemorning yotoq usti monitori ayniqsa, virusli kasalliklarning epidemiyasi paytida, reanimatsiya bemorlarini davolashda shifokorlarga juda qo'l kelmoqda.

Bundan besh yil muqaddam videogastroskop apparati olinganligi tufayli oshqozon-ichak trakti kasalliklari erta bosqichda tashxislanmoqda. Yangi qurilmalar - o'pkani sun'iy shamollatish uchun "Origari" kompaniyasi anesteziya va nafas olish apparati, defibrilator, bemorning yotoq usti monitori ayniqsa, virusli kasalliklarning epidemiyasi paytida, reanimatsiya bemorlarini davolashda shifokorlarga juda qo'l kelmoqda.

Bundan besh yil muqaddam videogastroskop apparati olinganligi tufayli oshqozon-ichak trakti kasalliklari erta bosqichda tashxislanmoqda. Yangi qurilmalar - o'pkani sun'iy shamollatish uchun "Origari" kompaniyasi anesteziya va nafas olish apparati, defibrilator, bemorning yotoq usti monitori ayniqsa, virusli kasalliklarning epidemiyasi paytida, reanimatsiya bemorlarini davolashda shifokorlarga juda qo'l kelmoqda.

So'nggi yillarda Tibbiy sanitariya qismining moddiy-texnika bazasi eshitish og'irlikni o'lchash uchun audiometr, laboratoriya sinovlari paytida barqaror harorat saqlab qolish qurilmalari, quritish shkafi, isitish plitasi, "Proskan-2000" - nafas olish tizimi kasalliklarini raqamli skanerlovchi fluorografik qurilma, zamonaviy raqamli rentgen mashinasi va boshqa tibbiy asbob-anjomlar bilan mustahkamlandi. Shifoxonada tibbiy jihozlarning yangilanishi bemorlarni o'z vaqtida va samarali davolashga olib kelyapti.

Tibbiyot xodimlarining bemorlarga shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatishlari uchun "Damas" va "WOLCWAGEN" "Tez yordam" mashinalari olindi. Ayni paytda markaziy-sterilizatsiya bo'limida ta'mirlash ishlari bajarilyapti. Uning yakunida ikkita zamonaviy avtoklav va suv tozalash inshooti o'rnatildi. Bundan tashqari, klinik-diagnostika laboratoriyasi, tez tibbiy yordam bo'limi va speleokamerada ham ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. O'tgan yili Tibbiy-sanitariya qismi poliklinikasi to'liq ta'mirlanib, zamonaviy kompyuter va mebellar bilan jihozlandi. Shuningdek, tibbiyot muassasimiz 414 million so'mdan ortiq mablag' evaziga tibbiy uskunalar, jumladan, exoensefalograf, ko'z kasalliklarini aniqlashda eng so'nggi ruzumdagi zamonaviy tonometr, oftalmoskop apparati, avtoklav, quritish uskunasi, EKG apparatlari, immunoferment analizatori bilan ta'minlandi. Bunday e'tiborga javoban konchilar va metallurglar, Zafarobod qo'rg'oni aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilaymiz.

Ilimiddin PIRMATOV,
"Zafarobod" Tibbiy sanitariya qismi boshlig'i.

XAVFLI KASALLIKDAN SAQLANING

Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligi o'ta xavfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiradi. U mahalliy aholi tilida "qora o'lim" deb ham yuritiladi. Qrim-Kongo gemorragik isitmasi cho'l va dasht hududlarida ishlovchi ishchi-xodimlar uchun, ayniqsa xatarli hisoblanadi.

Kasallik odamlarga asosan mayda va yirik shoxli qoramollardagi kanallarni terish, ularning junini olish yoki cho'l hududlarida ularni boqish jarayonida kana chaqishi orqali yuqadi. Iksod kanallarining hazm yo'llarida ko'plab miqdorda kasallik qo'zg'atuvchisi viruslar bo'ladi va odamni chaqqanda qoniga tushadi.

Ushbu kasallik bilan hayvonlar kasallanmaydi va klinik belgilar namoyon bo'lmaydi. Hayvonlar kasallik qo'zg'atuvchisi va tashuvchisi (kanalar) uchun rezervuar bo'lib hisoblanadi. Virus ajratgan moddalar natijasida odam qoni ivishi izdan chiqadi. Oqibatda burun va boshqa tabiiy teshiklardan qon ketishi kuzatiladi. Kasallik og'ir kechadi va o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa oqibati noxush tugashi mumkin. U faoliyati cho'l hududlari, ya'ni tabiiy o'choqlar bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari: cho'ponlar, ularning oila a'zolari, mol boquvchilar, ovchilar, qo'yilar juni qirgimiga vaqtincha jalb qilinganlarda ko'proq uchraydi. Kasallikning yashirin davri o'rta tacha 2-3 kun davom etadi, ba'zida bu davr bir necha soatlarga qisqaradi yoki 14 kungacha cho'ziladi.

Bemorning tana harorati 39-40 darajagacha ko'tarilishi, sovqotib qaltirashi, mushaklari og'irishi,

badanga toshma toshishi, yuz, bo'yin, ko'krak qismi terilari qizarishi, milk, burun, oshqozon-ichaklardan qon ketishi kabi alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Kasallikdan saqlanish uchun endemik o'choqlarda kanalar faollashgan mahalda mumkin qadar sayohatga yoki dam olishga chiqmaslik, kana chaqish holati kuzatilsa, tezlik bilan davolash-profilaktika muassasasiga tibbiy yordam uchun murojaat qilish kerak. Kanani qo'lda terish, o'ldirish mumkin emas. Iksod kanalarini butunlay yo'q qilishning iloji yo'q. Ular nihoyatda yashovchan bo'lib, molxona devori tiriqishida o'n yilgacha och uxlashi isbotlangan.

Kasallikka qarshi kurashish uchun qishloq hududlaridagi yakkaxo'jaliklarda chorva mollarni saqlash sharoitini to'g'ri tashkil etish va kanalarning ko'payishiga yo'l qo'yimaslikka alohida e'tibor qaratish zarur. Uy hayvonlari terisi yilning mart oyidan sentabr oyigacha qadar haftada bir marta xlori birkimlar bilan maxsus ishlovdan o'tkazilishi lozim.

Qrim-Kongo gemorragik isitma kabi o'ta xavfli kasallikka qarshi ogoh bo'laylik!

Gulnazar PARDAYEVA,
TSB SENM epidemiolog vrachi.